



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BADIY ESTETIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Xalqaro Nordik Universiteti magistratura 1-bosqich talabasi

Usmonova Mehrangiz Alisherovna

Anotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarda badiiy estetik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni estetik jihatdan tarbiyalashda badiiy adabiyotining o‘rni va ahamiyatini, shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqining o‘sishida bolalar adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlar hamda shakllarini tahlil qilishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yoshdagi bolalar, kitoblar bilan ishlash, badiiy va ijodiy qobiliyatlar, badiiy adabiyot, axloqiy estetik

“Bolalikda yo‘qolgan narsani hech qachon yoshlikda to‘ldirib bo‘lmaydi”.

V.A. Suxomlinskiy

KIRISH

Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim, dolzarb ahamiyatga ega masala bo‘lib kelgan. Biz yashayotgan XXI asrda esa u haqiqatan ham yo hayot, yo mamot masalasiga aylanib bormoqda. Tarbiya qanchalik mukammal bo‘lsa, xalq shunchalik baxtli yashaydi. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa ta‘lim-tarbiya sohasida bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar qilib tarbiyalash masalalariga doimiy e‘tibor qaratilmoqda. 2019 yil 29 apreldagi PF-5712 son farmonida O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yigacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida Prezident huzurida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ta‘lim tizimini rivojlantirishning ko‘plab yo‘nalishlari belgilab berilgan edi. Xususan, maktabgacha ta‘lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to‘la qamrab olish bo‘yicha muhim vazifalar qo‘yilgan edi.

Xalq ta‘limi tizimini boshqarishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yanga darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti. Shuningdek o‘quv-tarbiya jarayonida ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi.

Mamlakatimizda ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda. Xususan, shu kunlarda maktabgacha ta‘lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga



oshirish uchun tarbiyachilarning malakasini oshirish mazmuni va shakllarini takomillashtirish zarurati paydo bo'ldi.

Dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli, 2017 yil 30 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni¹, 2017 yil 9 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori, shuningdek Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (avvalgi Maktabgacha ta'lim vazirligi)ning 2018 yil 18 iyunda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturini amalda joriy etish, shu asosda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 may 2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori sohadagi ko'p masalalarga yechim bo'la oladi.

Vazirlik oldiga maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi hisobga olinib, nodavlat ta'lim tashkilotlari, jumladan, nodavlat bog'chalar tarmog'ini kengaytirishga ahamiyat qaratilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'limning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda oladi.

¹ <https://lex.uz/docs/3362886>



Ana shuning o'zi bolalarning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi.²

Bunga qo'shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo'q. Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.

Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi ilmida bu yoshdagi bolalarda sifat o'zgarishlari tezlashganligini inobatga olgan holda bu davrni uch bosqichga taqsimlab o'rganish maqsadga muvofiq deb topilgan: kichik maktabgacha davr (3-4 yosh); o'rta maktabgacha davr (4-5 yosh); katta maktabgacha yosh (5-6 yoshgacha); maktabga tayyorlov yoshi (6-7 yoshgacha). Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanish jarayonida ajdodlari tomonidan yaratilgan narsa va hodisalar, olam sir-sinoatlari bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. U insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlarni faol o'zlashtirib, egallab boradi. Bolada narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota-ona, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa tarbiyachilar ko'magida yuz beradi.

Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik o'z-o'zidan tafakkurdagi mustaqillikka asos bo'ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bosqich ularda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

P.F.Lesgaft (1837-1909)ning fikricha,³ inson hayotining maktabgacha yosh bosqichida uning kelgusida qanday xarakter-xislatlar sohibi bo'lishi belgilanadi va axloqiy xarakterning asoslari yuzaga chiqadi. Shuningdek, insonning bog'cha yoshidagi davr shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bog'cha yoshdagi bolalarning ko'zga tashlanib turuvchi xususiyatlaridan biri, ularning harakatchanligi va taqlid qilishidir. Bola tabiatining asosiy qonunini shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki

² <https://psihdocs.ru/maktabgacha-tarbiya-eshidagi-bolalarni-tarbiyalashda-oila-va-t.html>

³ https://ru.wikipedia.org/wiki/Лесгафт_Пётр_Францевич



faoliyatning bir xilligi va surunkaliligidan toliqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyati — serharakatlilik va taqlidchilikdir. Bu yoshdagi bola tabiatiga xos bo‘lgan asosiy qonuniyatni shunday ifodalash mumkin: bola uzluksiz tarzda harakatda bo‘lishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki harakatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchaydi. Ko‘rinadiki, maktabgacha yoshdagi bolalar tabiatining asosiy qonuniyati bo‘lmish serharakatlilikni cheklamay, maqsadli tashkil eta bilish bu yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasida kutilgan samarani beradi.

Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot asnosida bola axloqiy-me’yoriy mezonlar, atrofdagilarni anglash, shuningdek ijobiy va salbiy munosabatlar bilan tanisha boshlaydi.

Abu Nasr Forobiy “Baxt-saodatga erishuv haqida”⁴ nomli asarida ta’kidlashicha, ta’lim-tarbiya berish ikki usulda bo‘ladi. Birinchi usul amaliy fazilatlar hamda amaliy san’atlar, kasb-hunar va ularni bajarishga odatlantirish yo‘lidir, bu odat ikki turli yo‘l bilan hosil qilinadi: birinchi yo‘l - qanoat-baxsh, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so‘zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g‘ayrat, kasbga intilish, harakatga aylantiriladi. Ikkinchi usul — majbur etish yo‘lidir. Bu usul gapga ko‘nmaydiganlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ammo ulardan qaysi biri nazariy bilimlarni o‘rganishga astoydil kirishsa hamda fazilati yaxshi bo‘lib, unda kasb-hunarlar va juz’iy san’atlarni egallashga intilish bo‘lsa, uni majbur etmaslik kerak. Chunki maqsad uni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahliga aylantirishdir.

Uning fikricha, “Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo‘lsin, ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ilm ahli ilmdan mol-dunyosini ayamadan, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin”.

Alvin Toffler ijodkorlik chuqur, murakkab muammolarni hal etishda muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, Toffler ijodiy fikrni muammolar va muammolarni ko‘rib chiqish va yangi yo‘llar bilan duch keladigan qiyinchiliklar sifatida ko‘rib chiqadi. Toffler “Bolalarning kelajakni tasvirlashini va kelajak haqida fikrlashini qo‘llab-quvvatlashimiz kerak”⁵, deb ta’kidlagan. Ijodkor bolalar tez o‘zgaruvchan va ko‘plab masalalar bilan shug‘ullanish uchun yangi va innovatsion usullarni tushunadigan bo‘lishlari mumkin.

⁴ Аль-Фараби. Социально-этические трактаты. - Алма ата, 1976. -С. 198.

⁵ Toffler, Alvdn.(ed.): Learning for Tomorrow. 24-page. NYC: Vintage, 1974.



Torrens ijodkorlikni “betartiblikdan tashqariga chiqish” deb yuritib, fikrlash jarayonini tasvirlaydi. Torrens ijodiy fikrlashga o‘rgatishning 4 ta asosiy sababini aytadi.

- ijodiy fikrlash yaxshi ruhiy salomatlik va shaxsiyatni rivojlantirishga yordam beradi.
- ijodiy fikrlash yangi bilimlarni egallashga olib keladi.
- ijodiy fikrlash kunlik muammolarni hal qilishda yordam beradi.
- ijodiy fikrlash bugungi va kelajak avlodlarning hayotida yordam beradi.

“Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlari” modulining ishchi o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari malakasini oshirish kursining o‘quv dasturi asosida tuzilgan bo‘lib, u maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilariga maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ular faoliyatining psixologik tavsifi, bolalarni ta’lim jarayoniga psixologik jihatdan tayyorlashning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Go‘zallikka intilish tug‘ilishdan boshlab odamlarga xosdir. Hatto eng kichik bolalar ham atrofidagi go‘zallikni osongina payqashadi: go‘zal gul bo‘lsin, qo‘shiq eshitilsin. Voyaga yetganida, bolalar nafaqat atrofdagi go‘zallikni ko‘rishga, balki uni yaratishda ishtirok etishga - plastilindan biron bir narsani yasashga, qo‘shiq kuylashga, o‘zlari yoqtirgan o‘yinchoq chizishga intiladi. Ehtimol, birinchi she‘ringizni yozing. Kelajakda maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘rab turgan hamma narsa ular ichida ma‘lum fikrlar va his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradi. Bu jarayon maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham, ota-onalarning o‘zlari tomonidan ham amalga oshiriladigan badiiy-estetik ta’lim orqali tartibga solinishi mumkin⁶.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim.

Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy,

⁶ <https://minikar.ru/uz/money/hudozhestvenno-esteticheskoe-razvitie-i-vozpitanie-aktualnost/>



madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Biz o'z tadqiqotimizni Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 504-Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining 15 nafar tarbiyalanuvchisi va 10 nafar ota-onalar bilan birgalikda olib bordik, tadqiqotimizning mazmundorligini ta'minlash maqsadida quyidagi metodlardan foydalandik: namoyish qilish, suhbat, anketa, ko'rgazma va kuzatish metodi.

Vaqt o'tib bolalarning dunyoqarashi kengayib boradi. Ammo uning estetik jihatdan rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishida bu davrning, atrof-muhitning, jamiyatning muhim o'rni bor. Ular o'yinlar asosida rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning badiiy va estetik tarbiyasida o'yin faoliyatining o'rni Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin hali ham asosiy rol o'ynashini yodda tutgan holda, ota-onalar farzandining estetik rivojlanishi uchun undan samarali foydalanishlari mumkin.

Bolaning estetik tarbiyasi uchun xizmat qiladigan o'yinlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- G'ayrioddiy, nostandart yechimlarni izlashni talab qiladigan o'yin holatlarini simulyatsiya qilish.
- Filmlar yoki spektakllardan epizodlar va parchalarni ko'rish.
- Hikoya va ertaklarni jamoaviy yozish.
- She'r o'qish, badiiy asarlardan parchalarni ifodali o'qish⁷.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda tarbiyachilar bilan birgalikda ota-onalar ham shug'ullanishi kerak.

Ota-onalar, tarbiyachilar quyidagilarga intilishlari kerak.

- barkamol shaxsni shakllantirish;
- bolada go'zallikni ko'rish va qadrlash qobiliyatini rivojlantirish;
- ijodkorlikni rag'batlantirish va rivojlantirish;
- estetik did va ideallarning paydo bo'lishiga hissa qo'shadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borish yoshdagi bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bolalarning 3-7 yoshli davrida asosiy faoliyati quydagilardan iborat bo'ladi.

- predmetlarni o'rganishi;
- individual predmetli o'yinlar, jamoa syujetli-rolli o'yinlar;
- individual va guruhijod; musobaqa o'yinlari;
- muloqot o'yinlari;

⁷ <https://minikar.ru/uz/money/hudozhestvenno-esteticheskoe-razvitiye-i-vospitanie-aktualnost/>



-uy mehnati⁸

Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida tarbiyachilar bolalar bilan suhbatlar, ertalabki kechalar, ekskursiyalar va turli tadbirlarni o'tkazadilar. Ko'rgazma, teatr va muzeylarni ziyorat qilish ham muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish orqali ularni kelgusi hayotga tayyorlash, badiiy jihatdan o'stirish, shaxsiyati, iste'dodi, ijodkorligi, qobiliyatlarini rivojlantirib, to'g'ri yo'lda tarbiyalash uchun san'at, madaniyat namunalaridan, kitoblardan, ijod namunalaridan foydalanish kerak bo'ladi.

Badiiy-estetik tarbiya vositalari

- Tasviriy san'at (chizmachilik, modellashtirish, qo'llash).
- Dramaturgiya (teatr spektakllari).
- Adabiyot.
- Ommaviy axborot vositalari (televideniye, internet, gazeta, jurnal).
- Musiqa.
- Tabiat.⁹

Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy, estetik hissiyotlarning rivojlanishi va ularda kreativ yondashuv.

“Qaysi sohani olmaylik biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi”¹⁰, degan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya sohasida har bir bolani tarbiyalash va taraqqiyotda insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish tobora kengayib bormoqda. Bu bolaning shaxsiyati, iste'dodi, ijodkorligi va qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bolaning yoshligidan boshlab ijodiy salohiyatini ochib berish va amalga oshirishga imkon beradigan shart-sharoitlarni o'rganishga qaratilgan ishlar maktabgacha yosh davrida ijodkorlikni rivojlantirishda katta qiziqish uyg'otdi.

Zamonaviy ta'limning eng muhim vazifalaridan biri shaxs tarbiyasida yangicha yondashuvni tashkil etishdir. Bu jarayonlar bolaning ijodiy faol, mustaqil fikrlovchi, muloqotga tez kirishuvchi va turli vaziyatlarga moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Badiiy did hayot va san'atning barcha sohalarida insonning estetik hodisalarni farqlash, tushunish va baholash qobiliyati. Did uzoq ijtimoiy tarixiy taraqqiyot, mehnatning turli

⁸ <https://cyberleninka.ru/article/n/bo-cha-yoshidagi-bolalar-yinining-psihiologik-hususiyatlari>

⁹ <https://minikar.ru/uz/money/hudozhestvenno-esteticheskoe-razvitie-i-vospitanie-aktualnost/>

¹⁰ <https://kun.uz/47175005#!>



sohalaridagi tajribalar natijasida vujudga keladi. Didda shaxs, guruh va xalqning olamga estetik munosabati tajribasi in'ikos etilib, uni har bir kishi turli yo'llar bilan o'zlashtiradi, o'z individual estetik faoliyati bilan boyitadi.¹¹

Estetika(yun. - his qiluvchi, hissiy tarbiyaga doir) - inson bilan dunyo o'rtasidagi qadriyat munosabatining o'ziga xos tomonlarini va kishilarning badiiy faoliyati sohasini o'rganuvchi falsafiy fan. «Estetika» terminini nemis faylasufi A. Baumgarten (1714-62) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanib kelingan. Keyingi paytlarda nafosatshunoslik yoki nafosat falsafasi atamaları ham estetikani anglatadigan bo'ldi. Estetika o'z ichiga san'at estetikasi, tabiat estetikasi, texnika estetikasi, dizayn, sport estetikasi, turmush estetikasi, atrof muhitni go'zallashtirish va boshqalar sohalarni qamrab oladi.¹²

Kreativlik (lot. ing. "create" — yaratish, "creative" — yaratuvchi, ijodkor) individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.

Psixologlarning fikricha, "Kreativlik — bu har bir insonga tug'ilishi bilan hadya etiladigan, ammo tarbiya, ta'lim va ijtimoiy faoliyat tizimida yo'qolib boradigan ijodiy yondashuvdir"¹³. Shaxsga ta'sir etuvchi irsiyat, tarbiya, atrof-muhit kabi omillar bolaning kelajagida muhim ahamiyatga ega.

Bunda bola ijodiy tasavvurni rivojlantirish, ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirish, fikrlashda tizimlilik harakatchanlik qobiliyati yoki o'z-o'zini rivojlantirish, yechim qidirish uchun kuch va imkoniyat topish, ijodiy intuitsiya, nutq rivojlanishi kabi jihatlarga alohida e'tibor berish zarur.

Bolani rag'batlantirish metodi orqali ijodiy yondashishga badiiy didini yuksaltirishga, axloqiy rivojlanishiga, fikr-mulohaza qilishi, mustaqil fikrlashi, yangiliklarga intilishiga erishish mumkin.

Ommaviy tarzda o'tkaziladigan mashg'ulotlar mazmuni ko'pincha badiiy tavsifga ega faoliyat ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, musiqa mashg'ulotlari, sahna ko'rinishlarini namoyish etish, o'yin-sayohatlar, san'at asarlari bilan tanishish. Bunday mashg'ulotlarda aqliy faollikni oshirishga undovchi «emotsional ta'sir ko'rsatish» yaxshi samara beradi, bolaning o'z-o'zini namoyon eta olishiga imkon beradi.

Kreativlik ijodiy qobiliyatdir, yechilmagan vazifalarni hal etishni talab etadi, stereotip

¹¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-d/did-uz/>

¹² <https://qomus.info/encyclopedia/cat-e/estetika-uz/>

¹³ Abraham Harold Maslow. 1972 «Climate for Creativity» in Taylor C.W. 287-page. NYC: Perga/non Press.



tafakkur qobiliyatini inkor etadi. Mana shu davrdan unumli foydalanilmasa, bolalarda rivojlanish jarayonlari sust kechadi. Har bir bola takrorlanmas shaxsiy sifatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Pedagogning vazifasi esa boladagi kreativlikning yuzaga kelishini ko‘ra olishdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi o‘quv-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyati va layoqatini har tomonlama rivojlantirish, ularning shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur jarayonning mahsuldorligi pedagogning bolalarni yaxshi bilishi, ta’lim-tarbiyaning xilma-xil, samarali metodlarini qo‘llashiga bog‘liq.

Bolalarning dunyoqarashini kengaytirish, ijodkorligini oshirish, qobiliyatini shakllantirish, didini o‘stirish, kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishda quyidagi xulosaga kelamiz:

- ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlar bilan ijodiy fikrlash uchun aqlni turli sohalarda ishlashga o‘rgatish kerak;
- kattalar tomonidan majburlash, “uni o‘yna”, “buni o‘yna”, “xato qilding”, “mana bunday bajar” qabilida ish tutish bola ijodkorligiga zid uslublardir. “O‘zim bajarishim uchun menga yordam ber” qabilida ish yuritish maqsadga muvofiqdir.
- Bola erkin “kim bilan”, “nima bilan”, “qachon” tushunchalarini o‘zi hal qilsin. o‘zi ko‘rib, eshitib, harakat qilib, mushohada, ya’ni mantiqiy fikrlay olsin;
- dasturiy ma’lumotni bosqichma-bosqich murakkablashtirish yo‘nalishida amalga oshirilishi zarur: kuzatilgan hodisalar ko‘lamini kengaytirish va u yoki bu hodisalar haqidagi bilimlarni ketma-ketlikda chuqurlashtirish va umumlashtirish;
- ekskursiyada ta’limiy va tarbiyaviy vazifalar birgalikda hal etilishi lozim. Shuning uchun o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar hajmini rejalashtirish hamda qanday his-tuyg‘u, munosabat, axloqiy sifat, estetik ehtiyojlarni faollashtirish avvaldan o‘ylanishi kerak.

Pedagogika yo‘nalishida tatbiq qilinishi lozim bo‘lgan muhim masala borki, u ham bo‘lsa tarbiyachilarning pedagogik jarayonni zamonaviy usullar asosida maqsadli, tizimli va natijalarni bashorat qila olish orqali metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etishlarini ta’minlashdir. Interfaol usullar hozirgi kunda ta’lim islohotlaridagi ustuvor jihat va pedagogik muammolarni hal etishdagi roli, ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardandir.

T-jadval metodi

AFZALLIKLARI				KAMCHILIKLARI	
1.	Bolalarda	ijodiy	qobiliyatlar	1.	Bolalarni ko‘ngli borgan sari noziklashib boradi.
	shakllanadi.				



2. Dunyoni badiiy tasavvur qila olishadi.	2. Hayotdagi qiyinchiliklarga ma'lum bir darajada bardosh berishlari qiyinlashadi.
3. San'at hayotining bir qismiga aylanib boradi.	3. Boshqa fanlarga nisbatan qiziqishlari pasayadi.
4. Ularning badiiy tasavvuri nafislashadi.	4. Aniq va gumanitar fanlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklar paydo bo'ladi.
5. Tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlari ortib boradi.	

Jadvalni o'z tajribamdan va 2 yil davomida bog'chada o'tkazgan amaliyotimga tayangan holda tuzdim. Katta va tayyorlov guruhidagi bolalarga e'tibor bersak, ular dizaynga va go'zallikka juda o'ch bo'lishadi. Ayniqsa, qiz bolalarda bu holat ko'p kuzatiladi. O'zlariga alohida e'tibor berish, kiyimlariga har xil bezaklar kiritish va mashg'ulotlarda stol ustini ozoda va saranjom qilib turishlari bunga yaqqol misol. Ota-onalarining hatti-harakatlarini bevosita kuzatib borishadi va o'zlari uchun ma'qul, deb topganlarini takrorlashga urinishadi. Agar bu holatda ularga qarshilik yoki keskin "yo'q" javobini bersangiz, bu ularning ruhiyatiga keskin ta'sir qilishi mumkin. Shu sababdan ham bolalarning badiiy va estetik didlarini hurmat qilish, ularda kamchiliklar ko'zga tashlanganda sekin-astalik bilan birgalikda hal qilish tavsiya qilinadi.

TADQIQOT MUHOKAMASI

Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziquvchan, harakatchan, tashabbuskor, erkin fikrlovchi, kuzatuvchan, sog'lom bo'lishi kerak. Hozirda har bir bola erkin ijod qilishi va o'zining qobiliyatini ko'rsata olish huquqiga ega. Noan'anaviy mashg'ulotlarda ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan holda mehr bilan bolalarga iqtidorini namoyon qilishiga sharoit yaratib berish zarur. Tarbiyachilarning o'tayotgan mashg'ulotlari zamon talablari asosida bo'libgina qolmasdan, tarbiyalanuvchining o'zi ham bu mashg'ulotdan zavq olishi kerak.

"Bola boshidan..." degan naql bor xalqimizda. Bolalar rivojida uning genetikasi, oiladagi muhit, tarbiyasi, atrofdagilarning ta'siri, fiziologik o'zgarishlar, nuqsonlar sabab kelib chiqadigan xulq-atvor bolalikdan ba'zan ma'lum bo'lishi, ba'zan esa umuman ko'zga tashlanmasligi mumkin. Har bir bolaning noyobligini tan olish, uni o'z kuchi va imkoniyatiga ishontirish, shaxsining eng yaxshi sifatlariga tayanish, bola tomonidan o'z hayoti mazmunini egallashda, aniq va real erishiladigan hayotiy istiqbollar uchun yordam ko'rsatish lozim.

Bolaning shaxsiy, ijtimoiy maqbul qiziqishlarida qo'llab-quvvatlashga urg'u berilishi kerak. Bu zarur, biroq bunga alohida e'tibor ajratish kerak. Yutuqqa erishish va



muvaffaqiyat motivatsiyasi shakllanadi. Bilishga oid, estetik, ijodiy ehtiyojlar rivojlanadi. Imkoni boricha turli-tuman faoliyat uchun sharoit yaratiladi: to'garaklar, kolleksiya yig'ish, bolaning jamiyatning madaniy hayoti xilma-xilligida sport va boshqa shakllarga erkin kirishishi uchun tarbiyachilardan mas'uliyat talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quv-tarbiya tashkilotlari xodimlari turdosh soha mutaxassislari bilan o'zaro sherikchilik asosida ishlashi muammolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, har bir holatda pedagogik jamoa tomonidan o'z usullari manbai va reabilitatsion makon sharoitida moslashuvchi-rivojlantiruvchi muhit yaratilishi kerak bo'ladi.

XULOSA

"Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi" degan edi Konfutsiy. O'zgartirish uchun mehnat talab qilinadi. Bu esa har bir soha vakillarida bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari zimmasiga ham yuksak mas'uliyat yuklaydi. Chunki ular murg'ak qalblarni tarbiyalashi, kelajakka ishonch bilan ulg'ayishiga hissa qo'shishi kerak.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni aynan bir kasbga yo'naltirish orqali ulardagi qobiliyat rivojlantiriladi, imkoniyatlar ko'riladi va aniq bir maqsad sari yo'naltiriladi.

Shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish erta bolalikdan, bola kattalar rahbarligida turli xil faoliyat turlarini, shu jumladan badiiy faoliyatni o'zlashtira boshlagan paytdan boshlab amalga oshirilishi kerak. Ijodkorlikni rivojlantirishda katta imkoniyatlar tasviriy faoliyat va birinchi navbatda rasm chizishni o'z ichiga oladi. Bolani hayot va san'atdagi go'zallikni to'g'ri va yetarli darajada qadrlashga o'rgatish, uni yaratish uning ichki dunyosini shunday muhim fazilatlar bilan boyitish demakdir, ularsiz barkamol shaxs mavjud bo'lishi mumkin emas. Insonning go'zallik olamiga, ijod olamiga yo'li oiladan, bog'chalardan boshlanadi. Shu sababdan ham bolaga, eng avvalo kichik yoshidan e'tibor qaratish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tarbiyachi tomonidan zarur psixologik qulaylik muhitini yaratish, uni o'zi kabi qabul qilish zarurligiga ishonch hosil qilish orqali bolaning ijodiy salohiyatini ochishga asoslanadi. Uning ijodiy qobiliyatiga ishonish va o'zini namoyon qilish uchun sharoit yaratish muhimdir.

Maktabgacha tarbiyachining hissiylik, bola qalbining sezgirligi, uning bilimga intilishida hushyorligi va ta'sirchanligi kabi fazilatlaridan mohirona foydalanib, biz har bir bolaning turli yosh bosqichlarida potensial rivojlanishini imkon qadar rag'batlantirishimiz kerak. Bolalarni "buyuk san'at" bilan imkon qadar erta tanishtirish



kerak. Bolaning go‘zallik olamiga mustaqil kirib borishi uchun tasviriy san‘at tilini bosqichma-bosqich tushunish uchun ushbu yo‘lning bosqichlarini: oddiydan murakkabga, xususiyan umumiygacha bo‘lgan bosqichlarni belgilash orqali zarur shart-sharoitlarni yaratish kerak. Pedagog sinfda tasviriy san‘at tushunchalari va atamalari bilan, hatto kichiklari bilan ham ishlashdan qo‘rqmaydi, chunki bolalar quloq bilan idrok etish orqali tezda ko‘nikadi va keyin ongli ravishda foydalanadi. O‘qituvchi uchun asosiy narsa tushunchalar va atamalarning ma‘nosini tushunishdir, bu ularning bolalar xotirasida mustahkam saqlashga imkon beradi.

Umuman olganda farzand tarbiyasi mashaqqatli ish. Unga ta‘lim-tarbiya berish esa o‘n chandon murakkab. Buning uchun pedagog-tarbiyachidan kuchli mahorat, sabr talab etiladi. Bugungi bolalarni ajdodlarimizga munosib avlod qilib tarbiyalash, ertangi kunimizga ishonchi mustahkam bo‘lishi uchun qadriyatlarga sodiq qilib voyaga yetkazish olidimizda turgan muhim vazifadir. “Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, ularni jismoniy va ma‘naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o‘zligini to‘la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo‘lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig‘i bilan qaytishiga shubha yo‘q”, – degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev.

Psixologik nuqtai nazardan, maktabgacha bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davradir, chunki bu yoshdagi bolalar juda qiziquvchan, atrofdagi dunyoni bilish istagi juda yuqori va ota-onalar qiziquvchanlikni qo‘llab-quvvatlab, bolalarni o‘rganishni bilishadi. Ilk yoshlarda turli xil faoliyat bolalar tajribasini kengaytirishga yordam beradi. Tajriba va bilimlarni to‘plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zarur shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha ta‘lim tashkiloti xodimlari haqida o‘ylash katta yoshdagi bolalarni o‘ylashdan ko‘ra qulayroq. Maktabgacha bolalik bu ijodiy tasavvurni rivojlantirish uchun ham sezgir davri. Yuqoridagilardan xulosa qilib, biz maktabgacha yosh davri bu – ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar davri, deyishimiz mumkin.

TAKLIFLAR

1. To‘g‘arak faoliyatida ishtirok etish kerak. (studiyalar, to‘g‘araklar va boshqalar).
2. Tematik ko‘rgazmalarga, ekskursiyalarga tashrif buyurish lozim.
3. Bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun tasviriy san‘at bilan tanishtirish kerak.
4. Atrofni kuzatish, atrofdagi ob‘ektlarning xususiyatlarini ko‘rish, ularni bir-biri bilan taqqoslash, ulardagi umumiy va farqli xususiyatlarni topish, asosiy narsani ajratib



ko'rsatish qobiliyatini tarbiyalash orqali tasvir qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Uzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha Xarakatlar strategiyasi tuFrisida"gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. Amonashvili Sh.A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. - Minsk: "Universitetskoye", 2000. -S. 154.
3. Andriadi I.P. Osnovi pedagogicheskogo masterstva: Ucheb. posobiye dlya stud. sred. ped. ucheb. zavedeniy. - M.: "Akademiya", 1999. -S. 160.
4. Andreyev V.I. Pedagogika. Uchebniy kurs dlya tvorcheskogo samorazvitiya. 2-ye izd. -Kazan: 2000.
5. Azarov Yu.P. Masterstvo vospitatelya. - M.: "Prosvesheniye",1971.-S. 126.
6. Azizxodjayeva. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. - T.: Nizomiy nomidagi tDpU, 2003. -175-b.
- 7.Nishonova Z.T., Alimova G.K.. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017.
8. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi. Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010.
- 9.Do'stmuhamedova Sh.A,.Nishonova Z.T va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013.
10. Asadov Yu., Musurmanov R. O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya) - T.,2011
11. Sodiqov B. Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi, Termiz 2003 yil
12. Sodiqov B -Deviant xulq bolalar psixologiyasi, Termiz 2010 yil
13. Hasanboyeva O. Oilada ma'naviy-ahloqiy tarbiya. T, Aloqachil, 1998 yil
14. Xudoyqulov X.J Odob-ahloq va tarbiya durdonalari T. 2008 yil